

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqto'v Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDI MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CONTENT OF DEVELOPING PERSONAL AND PROFESSIONAL CONGRUENCY OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON A PROJECT APPROACH

Kobilova Nilufar Khudoyshekurovna

Associate Professor, QDTU

Khujamova Dilobar Berdiyevna

Assistant, QDTU

Abstract. The article scientifically analyzes the concept of professional congruence in the professional formation of a teacher in the conditions of modern higher pedagogical education. It considers the harmony between the internal needs and values of the pedagogical personality and external professional requirements as an important factor. The results of the study serve to improve the personal and professional development of future teachers.

Keywords: professional congruence, pre-service teacher, pedagogical activity, project-based approach, personal-professional harmony, reflection, professional self-development, functional system, pedagogical competence.

OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Qobilova Nilufar Xudoyshekurovna

QDTU dotsenti

E-mail: nilufar.kobilova90@mail.ru

Xujamova Dilobar Berdiyevna

QDTU assistenti

E-mail: dilobarxujamova55@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oliy pedagogik ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy shakllanishida professional kongruentlik tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda pedagog shaxsining ichki ehtiyoj va qadriyatlari bilan tashqi kasbiy talablar o'rtasidagi uyg'unlik muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: professional kongruentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik faoliyat, loyihaviy yondashuv, shaxsiy-kasbiy uyg'unlik, refleksiya, professional o'zini rivojlantirish, funksional tizim, pedagogik kompetensiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N52>

Kirish. Globallashtirish, raqamlashtirish va ta'lim tizimining jadal modernizatsiyalashuvi sharoitida oliy ta'lim muassasalari oldida bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassis sifatida, balki shaxsiy, axloqiy va emotsional jihatdan yetuk, o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda loyihalay oladigan pedagog shaxs sifatida tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik faoliyatning murakkablashuvi, ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan ko'p qirrali vazifalar va ijtimoiy mas'uliyatning ortib

borishi o'qituvchidan ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o'rtasida barqaror uyg'unlikni ta'minlashni talab etadi. Mazkur uyg'unlik pedagogika fanida "pedagogik kongruentlik" tushunchasi orqali ifodalanadi. Pedagogik kongruentlik o'qituvchining ichki kasbiy e'tiqodlari, axloqiy-etik pozitsiyasi, emotsional-intellektual holati va tashqi pedagogik faoliyatining mazmunan va funksional jihatdan bir-biriga mos kelishini anglatadi. Kongruent pedagog o'quvchilar bilan muloqotda samimiylilik, izchillik va barqaror pedagogik pozitsiyani namoyon etadi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaldagi oliy pedagogik ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kongruentlikni maqsadli va tizimli rivojlantirish masalasiga yetarli e'tibor qaratilmayotgani kuzatiladi. O'quv jarayonida ko'proq bilim va texnologik ko'nikmalarni o'zlashtirishga urg'u berilishi, pedagog shaxsining emotsional, axloqiy va refleksiv rivojlanishi ko'pincha ikkilamchi ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda.

Natijada bo'lajak pedagoglarning nazariy tayyorgarligi bilan real pedagogik faoliyati, ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik xulq-atvori o'rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etishda loyihaviy yondashuv ta'lim jarayonining samarali pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy yondashuv talabalarning faol, mustaqil va mas'uliyatli ishtirokini ta'minlab, ularni real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni mustaqil hal etish, refleksiv fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. Ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o'rtasida mazmunan uyg'unlik shakllanib, pedagogik kongruentlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili loyihaviy yondashuvning bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyatini keng yoritgan bo'lsa-da, uning aynan pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mazmuni, mexanizmlari va metodik ta'minoti yetarli darajada ochib berilmagan. Shuningdek, oliy ta'lim sharoitida loyihaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning yaxlit metodik modeli va pedagogik shart-sharoitlari bo'yicha kompleks tadqiqotlar kam uchraydi.


Mazkur holatlar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda loyihaviy yondashuv asosida pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish mazmunini ilmiy jihatdan asoslash, uning pedagogik mexanizmlari va samarali shakl hamda usullarini aniqlash zaruratini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Hozirgi vaqtda o'qituvchining kongruentlik masalasi quyidagi savol bilan ifodalanadi: o'qituvchi bu normativ hujjatlar, standartlar va pedagogik texnologiyalarda belgilangan me'yorlarni bajaruvchi shaxsmi yoki o'zining professional biografiyasini yaratgan, professional pedagogik mehnat maydonida o'zini namoyon qiluvchi muallifmi? Pedagogik mehnat sohasida professional sifatida shakllanish uzoq, ziddiyatli va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda o'sish, stagnatsiya va inqirozlar mumkin. Professional o'zini rivojlantirish manbalarini ichki va tashqi professional-ta'lim muhitlarida qidiradi, shu nuqtai nazardan, o'qituvchining uzviy, uyg'un va samarali shakllanishini ta'minlovchi yangi yondashuvlarni izlash muhim hisoblanadi, shuningdek, mavjud yondashuvlar kasbga kirish jarayonini o'rganishda qisman xususiyatga ega. Pedagogik mehnatda inson bir vaqtda shaxs, individ, individual va subyekt sifatida namoyon bo'ladi. XX asrning 90-yillaridan boshlab, faoliyatni rivojlantirish yondashuvi bilan birga, professional

tayyorgarlikda xulq-atvor yondashuvi ham dolzarb bo'lib kelmoqda. Tadqiqot amaliyotida bir nechta pozitsiyalar shakllangan bo'lib, ular pedagogik faoliyat va o'qituvchining xulq-atvorini bir-biri bilan bog'lash, pedagogik faoliyat va xulq-atvorni ichki va tashqi namoyon bo'lishi sifatida ko'rish, shuningdek, o'qituvchining kongruentlik va pedagogik faoliyatini mustaqil pedagogik kategoriya sifatida tavsiflash bilan bog'liq.


Ilmiy aylanmalarda "o'qituvchining professional kongruentligi" konsepti faol joriy etilmoqda. Bu murakkab, ko'p qirrali, funksional pedagogik hodisa bo'lib, o'qituvchining professionalizmi darajasini aks ettiradi. Kongruentlik shaxsning tashqi muhit bilan munosabatlari jarayonida ichki ehtiyojlar va tashqi imkoniyatlar uyg'unligini ta'minlovchi funksional tizimdir.

Tadqiqotchilar funksional tizimlarning tashkil topishini bir nechta darajalarda ko'rib chiqadilar, jumladan: metabolik, gomeostatik, xulq-atvoriy, psixik va ijtimoiy darajalar. Ushbu darajalarning har birida shakllanuvchi funksional tizim muayyan vazifalarni bajarib, insonning atrof-muhit sharoitlariga moslashuvini ta'minlaydi. Funksional tizimlarning samarali faoliyati ularning muhim xususiyatlari bilan belgilanadi. Mazkur xususiyatlar qatoriga o'zini tartibga solish, izomorfizm, moslashuvchanlik, kongruentlik, ochiqlik, uyg'unlik va dinamiklik kiradi. Ayniqsa, kongruentlik funksional tizimning barqarorligi va yaxlitligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki u tizim tarkibiy qismlarining o'zaro mosligi va uyg'unligini ifodalaydi. Funksional tizimlarning asosiy xususiyatlari mazmunan quyidagicha tavsiflanadi (1- rasm):



1-rasm. Funksional tizimlarning asosiy xususiyatlari

Ushbu xususiyatlar o'qituvchining professional rivojlanishida ham amal qiladi. Kongruentlik insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirida bo'lish shakli sifatida namoyon bo'ladi. Kongruentlik insonning psixikasi, tajribasi va madaniyatga mansubligi o'rtasidagi bog'liqlikni izohlash obyekti hisoblanadi, shuningdek bu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Kongruentlik tuzilmasi

Barcha psixik regulatsiya darajalari (emotsional, normativ, qiymat va ma'naviy) inson kongruentligini tartibga solishda bir vaqtning o'zida ishtirok etadi. Faoliyat subyektning ichki dunyosi bilan belgilanadigan holat bo'lib, xulq-atvor jarayonlarida namoyon bo'ladi. Ichki faoliyat motivatsion, maqsadli va instrumentatsion asoslarni o'z ichiga oladi, ular faoliyat, harakat va operatsiyalarda namoyon bo'ladi.

Ingliz tadqiqotchisi Darling-Hammond [2.] ta'lim sifati o'qituvchining kongruentligi, intellektual tayyorgarligi, metodik tafakkuri va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash qobiliyati bilan bevosita bog'liqligini qayd etadi. Hattie [3] esa o'quv jarayonida o'qituvchining reflektiv fikrlashi, tahliliy yondashuvi va talaba ehtiyojlarini hisobga olishi ta'lim natijalari samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Buyuk pedagog olim Karl Rodjersning pedagogik g'oyalari qirq yildan ortiq vaqt mobaynida zamonaviy ta'limning metodlari va amaliyotiga ulkan ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Rodjers ta'lim sohasida inson uchun ahamiyatli bo'lgan ikki asosiy o'qitish turini ajratib ko'rsatgan va o'zining mustaqil konsepsiyasini yaratgan yagona olim hisoblanadi, jumladan an'anaviy ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir[1].

U an'anaviy pedagogikaning qator qoidalariga qarshi chiqqan, xususan, bunday yondashuvda talaba o'qituvchiga tegishli bo'lgan intellektual bilimlarni passiv tarzda qabul qiladi. An'anaviy ta'limda quyidagi holatlar ustuvor hisoblanadi: o'qituvchi bilim sohibi, talabalar esa uni o'zlashtirishi shart; asosiy elementlar — dars va imtihonlar; o'qituvchi rahbar, talaba esa itoat etuvchi sifatida namoyon bo'ladi; talaba ta'lim maqsadlari, mazmuni va metodlarini belgilashda ishtirok etmaydi, o'qituvchini tanlash huquqiga ega emas; o'qituvchining talabaga bo'lgan ishonchi minimal darajada bo'ladi. Bunga muqobil ravishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogika talabaning xulq-atvori, psixologiyasi va shaxsiyatini o'zgartiradigan qator farqli belgilarni ilgari suradi[8,9]. Ularga shaxsiy jalb etilganlik, o'z-o'zidan yuzaga keluvchi faollik va o'quv jarayonining shaxsga chuqur ta'sir etish qobiliyati kiradi.

Rodjers ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'qitishdan o'rganishga ko'chirish, bilim berishni oddiy axborot uzatish jarayonidan chiqarib, ma'noli o'qishni fasilitatsiya qilishga qaratilgan sharoitlarni yaratish zarurligini ta'kidlaydi. K. Rodjers fasilitatsiyani talaba uchun

o'qish jarayonini yengillashtirish va rag'batlantirish sifatida talqin qiladi. Bu auditoriyada intellektual va emotsional muhitni, shuningdek, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash atmosferasini yaratishni anglatadi[1].

Karl Rodjersga ko'ra shaxsga yo'naltirilgan ta'limning to'qqizta asosiy qoidasi:

1. Fasilitator o'ziga va talabalarga nisbatan yetarli darajada hurmat bilan munosabatda bo'ladi hamda ularning mustaqil fikrlashi va o'z ehtiyojlariga mos holda o'qishini ta'minlaydi.
2. U ta'lim jarayonida o'z shaxsiy tajribasiga tayanadi va uni talabalar bilan ochiq muloqot asosida baham ko'radi.
3. Ta'lim va tarbiya uchun mas'uliyat o'qituvchi va talabalar o'rtasida hamkorlik asosida bo'lishiladi.
4. Talaba o'z o'quv dasturini mustaqil ravishda yoki boshqalar bilan hamkorlikda shakllantiradi va rivojlantiradi.
5. Talaba o'zining bilimlilik va tarbiyalanganlik darajasini mustaqil baholaydi hamda o'z rivojlanishini tahlil qiladi.
6. Talaba guruh a'zolari va o'qituvchidan axborot to'plash orqali bilim doirasini kengaytiradi.
7. O'qishni yengillashtiruvchi ijobiy psixologik muhit ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllantiriladi.
8. Barcha faoliyat turlari ta'lim-tarbiya jarayonini uzluksiz qo'llab-quvvatlash va shaxs rivojini ta'minlashga yo'naltiriladi.
9. Tashqi intizom o'rnini shaxsning ichki nazorati va o'z-o'zini intizomga solish egallaydi.

Karl Rodjersning g'oyalari nazariy va amaliy jihatdan keng qo'llanilgan. Nazariy jihatdan uning g'oyalari Charlz Karran tomonidan ishlab chiqilgan "Maslahatchi-talaba" (Counselor-Learner) metodida rivojlantirilgan bo'lib, unda talabalar o'qituvchining maslahatlari va psixologik qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lgan guruh sifatida talqin etiladi. Ushbu metodda o'qituvchining asosiy maqsadi guruhda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, tashvish darajasini pasaytirish, o'z-o'ziga ishonch, empatiya va erkinlikni oshirishdan iborat bo'lgan.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv amaliyotda Poluostrov maktabi hamda Tasviriy va vizual san'at maktabi faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llanilgan[4,1]

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim faqat ayrim fanlar yoki maxsus holatlar uchungina mos, degan noto'g'ri tasavvur mavjud. Biroq bu qarashni matematika, informatika, ekologiya, geologiya, adabiyot va chet tillarini o'qitishda faoliyat olib borgan B. Romey, E. Uayt, L. Kann, J. Baxxem, J.Allender, R. Mauchnik-Pitrik kabi o'qituvchi-fasilitatorlar amaliy jihatdan rad etganlar[13,14,6].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi psixologik nuqtai nazardan I.S.Yakimanskaya tomonidan ishlab chiqilgan. Qator rus maktablarida K. Rodjers g'oyalari T.V. Dmitriyeva, N.M. Basalayeva, M.A. Zaraylar tomonidan ta'lim amaliyotiga joriy etilgan[9,10].

Karl Rodjersning ahamiyatli ta'lim, o'qituvchining roli hamda talabalar bilan munosabatlarga oid g'oyalari xorijiy ta'lim tizimlarida ta'limni gumanizatsiya qilishning muhim nazariy asosini tashkil etadi. Bunday ta'lim natijasida talabalarning o'z-o'ziga baho berish darajasi oshadi, intellekt koeffitsiyenti o'sadi, bilish qobiliyatlari rivojlanadi[1,4]. Bu esa o'z navbatida o'quv muvaffaqiyatining ortishi, davomat va sog'liq holatining yaxshilanishiga olib

keladi. O'qituvchilar faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining professional qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning talabalarga bo'lgan yondashuvi shunchalik ijodiy, differensial va individuallashtirilgan bo'ladi.

An'anaviy ta'lim tarafdorlari gumanistik ta'limga har doim ham ijobiy munosabat bildirmaydilar. Bu, avvalo, talabalar ustidan qat'iy nazorat va hokimiyatdan voz kechish, erkinlik va shaxsiy mas'uliyat berish bilan bog'liq. Biroq AQSh maktablari tajribasi an'anaviy ta'lim ustun bo'lgan sharoitda ham shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Maktablar va jamiyatni demokratlashtirish hamda gumanizatsiya qilish jarayonida Karl Rodjersning gumanistik g'oyalari ta'lim salohiyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, har qanday ta'lim tizimi tajribasini o'zlashtirishda milliy xususiyatlarni inobatga olish zarur. Xorijiy pedagogik g'oyalarni ijodiy tarzda qo'llash va ularni yangi sotsiokultural sharoitlarga moslashtirish muhim hisoblanadi. [5].

O'qituvchining professional xulq-atvorini funksional tizim sifatida modifikatsiya qilish jarayoni uning professional rivojlanishining barcha bosqichlarida amalga oshadi. O'qituvchilik kasbini tanlash dastlab instinktiv va imprinting xulq-atvor asosida yuzaga keladi. Kasb tanlovchi shaxsda altruizm instinkti, boshqalarga g'amxo'rlik qilishga intilish hamda ta'lim muhitining ta'siri ostida bo'lajak o'qituvchining ideal obrazi shakllanadi.

Professional tayyorgarlik bosqichida ushbu obraz o'qituvchi bo'lish ehtiyojining ro'yobga chiqishini ta'minlaydi va professional darajadagi funksional tizim shakllana boshlaydi. Ijodiy ideal o'qituvchi obrazi mavjud bo'lgan taqdirda, talaba pedagogik kasbiy madaniyat va fan bo'yicha tayyorgarlikni egallash orqali funksional savodxonlikka erishadi. Natijada u o'z tayyorgarligi va egallagan malakasiga muvofiq ravishda o'qituvchi rolini bajarish huquqiga ega bo'ladi[13,15].

Bu bosqichda imprinting xulq-atvori o'rnini standartlashgan, kasbiy va funksional xulq-atvor egallaydi. Ushbu xulq-atvor o'qituvchining professional kompetentligida namoyon bo'ladi. Professional moslashuv bosqichida o'qituvchi pedagogik funksiyalarini takomillashtiradi va maxsus (malakaviy) yetuklik darajasiga erishadi. Bunda rolli xulq-atvor shakllanib, u malaka toifasi orqali ifodalanadi hamda o'qituvchining o'z faoliyatida kasbiy me'yorlarga amal qilishga tayyorligini aks ettiradi.

Professional rivojlanish bosqichida shaxsiy yetuklik professional kompetentlikning ifodasi sifatida shakllanadi. O'qituvchida professional xulq-atvor vujudga kelib, unda kasb ijtimoiy qadriyat sifatida anglanadi. Professional xulq-atvor rivojining eng yuqori bosqichi ixtiyoriy (irodaviy) xulq-atvor bo'lib, bunda o'qituvchi professional faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'ladi[9]. U professional qadriyatlarga va mavjud pedagogik voqelikka tayangan holda o'z pedagogik faoliyat ssenariylarining muallifi va ijrochisi sifatida o'zini o'zi ro'yobga chiqaruvchi, o'z-o'ziga samarali, o'ziga yetarli va o'zini o'zi aktualizatsiya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Natijalar va muhokama: Loyihaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari natijalari pedagogik jarayon samaradorligini baholash imkonini berdi. Tadqiqot davomida pedagogik kongruentlikning shaxsiy, emotsional-intellektual, kommunikativ va reflektiv komponentlari diagnostik mezonlar asosida tahlil qilindi hamda tajriba avvali va yakunidagi ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslandi. Loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarida jami 90

nafar bo'lajak o'qituvchi ishtirok etdi. Pedagogik kongruentlik darajasi fragmentar uyg'unlik, qisman uyg'unlik va to'liq pedagogik uyg'unlik ko'rsatkichlari asosida baholandi.

Fragmentar uyg'unlik bo'lajak pedagog shaxsida pedagogik kongruentlikning alohida komponentlari mavjud bo'lsa-da, ular o'zaro tizimli va barqaror bog'lanmagan holatni ifodalaydi. Ushbu darajada ichki kasbiy qadriyatlar, emotsional holat va tashqi pedagogik faoliyat o'rtasidagi uyg'unlik epizodik xarakterga ega bo'lib, pedagogik xulq-atvorda izchillik yetarli darajada namoyon bo'lmaydi. Bo'lajak pedagog pedagogik vaziyatlarga ko'proq intuitiv va vaziyatga moslashuvchan tarzda munosabat bildiradi, refleksiv faoliyat esa beqaror bo'ladi.

Qisman uyg'unlik bo'lajak pedagogda pedagogik kongruentlikning asosiy komponentlari shakllanayotganini anglatadi. Ushbu bosqichda ichki kasbiy qadriyatlar bilan tashqi pedagogik faoliyat o'rtasida nisbatan barqaror bog'liqlik vujudga keladi, biroq bu uyg'unlik barcha pedagogik vaziyatlarda bir xil darajada namoyon bo'lavermaydi. Emotsional-intellektual barqarorlik va refleksiv fikrlash rivojlanayotgan bo'lsa-da, ayrim holatlarda pedagogik pozitsiyaning izchilligi buzilishi mumkin. Bu daraja pedagogik kongruentlikning faol shakllanish bosqichi sifatida tavsiflanadi.

To'liq pedagogik uyg'unlik bo'lajak pedagog shaxsida ichki kasbiy qadriyatlar, emotsional-intellektual holat va tashqi pedagogik faoliyatning mazmunan va funksional jihatdan to'liq integratsiyalashgan holatini ifodalaydi. Ushbu darajada pedagogik pozitsiya barqaror, izchil va ongli bo'lib, o'qituvchi har qanday pedagogik vaziyatda o'z kasbiy e'tiqodlari va axloqiy prinsiplari asosida faoliyat yuritadi. Refleksiv fikrlash, emotsional barqarorlik va kommunikativ kompetensiyalar yuqori darajada rivojlangan bo'lib, pedagogik kongruentlik kasbiy faoliyatning ajralmas sifatiga aylanadi.

Boshlang'ich diagnostika natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning aksariyat qismida pedagogik kongruentlik yetarli darajada integratsiyalashmagan holatda ekanligi aniqlandi:

- **Fragmentar uyg'unlik** – 36 nafar (40,0 %)
- **Qisman uyg'unlik** – 38 nafar (42,2 %)
- **To'liq pedagogik uyg'unlik** – 16 nafar (17,8 %)

Mazkur natijalar bo'lajak pedagoglarda ichki kasbiy qadriyatlar, emotsional-intellektual holat, normativ me'yorlar va tashqi pedagogik faoliyat o'rtasidagi uyg'unlikning ko'proq epizodik va beqaror xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Loyihaviy yondashuv asosida olib borilgan pedagogik faoliyat yakunida kongruentlik darajalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi(1-jadval)

1-jadval.

Pedagogik kongruentlik darajalari bo'yicha taqsimot (N = 90)

Kongruentlik darajasi	Tajriba avvali (nafar)	Tajriba avvali (%)	Tajriba yakuni (nafar)	Tajriba yakuni (%)	Δ (o'zgarish)
Fragmentar uyg'unlik	36	40,0	7	7,8	-29
Qisman uyg'unlik	38	42,2	23	25,6	-15
To'liq pedagogik uyg'unlik	16	17,8	60	66,6	+44
Jami	90	100	90	100	—

Olingan statistik natijalar loyihaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kongruentlikni tartibga soluvchi emotsional, normativ, qadriyat va ma'noviy regulatsiya darajalarini bir vaqtning o'zida faollashtirishga qodir integrativ pedagogik mexanizm ekanligini ko'rsatdi. Tajriba davomida kongruentlikning fragmentar holatdan to'liq pedagogik uyg'unlik bosqichiga barqaror siljishi ta'lim sifati, reflektiv fikrlash va shaxsga yo'naltirilgan fasilitatsion muhit samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu natijalar pedagogik kongruentlikning asosiy qismi to'liq integratsiyalashgan bosqichga ko'tarilganini yaqqol bildiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Роджерс К. Становление человека: взгляд на психотерапию. – М.: Институт общегуманитарных исследований, 2018. – 241 с.
2. Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. /Jossey-Bass/143-148.
3. Hattie, J. (2008). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
4. Rogers, C.R. 1993. On Becoming a Person. A Therapist's View of Psychotherapy. London: Constable and Company Ltd.].
5. Сиразеева А.Ф. ЧЕЛОВЕКОЦЕНТРИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ КАРЛА РОДЖЕРСА // Фундаментальные исследования. 2007. № 6. С. 54-55; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=3160> (дата обращения: 27.12.2025).
6. Филимонюк Л.А. Формирование проектной культуры педагога в процессе профессиональной подготовки: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Ставрополь, 2008. – 425 с.
7. Полат Э.С. Метод проектов на уроках иностранного языка. – М.: Академия, 2000. – 272 с.
8. Пакхимова Н.Ю. Метод проектов в образовательном процессе. – М.: АРКТИ, 2015. – 204 с.
9. Безрукова В.С. Педагогика: учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. – 381 с.
10. Троянская С.Л. Педагогическая коммуникация: методология, теория и практика. – Изд-во: УдГУ, 2011. – 148 с.
11. Кузмина Ю.В. Интуитивное чувство числа: проблемы измерения и контроль визуальных свойств // Теоретическая и экспериментальная психология. – 2018. – №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/intuitivnoe-chuvstvo-chisla-problemy-izmereniya-i-kontrol-vizualnyh-svoystv>.
12. Карякин Ю.В. Конгруентность как характеристика учебного процесса // Современное наукоемкое образование. – 2007. – №3. – С. 36–37.
13. Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2017. – 512 с.
14. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1988. – 416 с.
15. Коменский Я.А. Великая дидактика. – М.: Педагогика, 1982. – 336 с.
16. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2006. – 352 p.
17. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).